

ABDULLA QODIRIY ASARLARI JAHON NIGOHIDA

**Temirov Jahongir Pirmamat o`g`li,
Xojibolaev Yodgorbek Yusup o`g`li,
Jovliyev Muhriddin Norboy o`g`li.**

I.Karimov nomli Toshkent davlat texnika universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada o`zbek romanchiligining asoschisi, millatimiz faxri sanalgan Abdulla Qodiriy asarlarining xorijda va qardosh xalqlar adabiyotida tutgan o`rni hamda ularni o`rganish yuzasidan olib borilayotgan keng ko`lamli ishlar haqida so`z yuritiladi.

Kalit so`zlar: Roman, “Milliy adabiyot”, “O’tkan kunlar”, badiiy proza, “Toshkentlik sevishganlar”, struktural adabiyotshunoslik, tadqiqot.

O`zbek romonchiligining asoschisi, jozibador va umumboqiy asarlari adabiyotimiz va umuman madaniyatimiz mulkiga aylanib ulgurgan o`lmas so`z san’atkori – Abdulla Qodiriydir. Yozuvchi adabiyotimizda o`zining betakror romanlari, tanqidiy-publisistik maqolalari, humoristik feleytonlari bilan mashhur. Bugungi kunda Qodiriy ijodini o`rganish bo`yicha yurtimiz va xorijda ko`plab jiddiy ishlar amalga oshirilmoqda. Qator tadqiqot ishlari yaratildi. Yurtimizda Qodiriy dahosiga ehtirom yuzasidan qilinayotgan ezgu ishlarning ko`lamli keng miqyosda davom etib kelmoqda. Qodiriy ijodi nafaqat yutimizda, ayni paytda, qardosh xalqlar va g`arb adabiyotida ham keng miqyosda o`rganilyapti desak hech mubolag`a bo`lmaydi. Jumladan, mashhur qozoq yozuvchisi Muxtor Avezov ijodkor hayotiga oid “Abdulla Qodiriy” (Julqunboy) nomli yuksak roman yaratdi.

Abdulla Qodiriy va uning asarlari haqida gap ketganda, “... Uning romanlari 20-yillarda go`yo tekis sahroda to’satdan Pomir tog‘lari vujudga kelganday paydo bo‘ldi...” degan e’tirofini ko‘pchilik yaxshi biladi. Aslida tekis sahroda tog‘ o‘z o‘zidan paydo bo‘lib qolmaganidek o`zbek romani ham mavjud mumtoz epik tafakkurning yangicha sharoit bergen mahsulidir. Bunday yuksak e’tiroflar-u mulohazalar boshqa qardosh millat yozuvchilarini tomonidan ham aytib kelinmoqda. Eng muhimi, bundagi adib novatorligini, ustozligini ulug‘lovchi fikrlar o`zbek adabiyotshunosligida mavjud qarashlarga juda hamohangdir. Qodiriyshunoslikka oid o`zgacha talqinlarni kuzatishda xorij olimlari tomonidan bitilgan manbalar ham nihoyatda muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchi jahon urushi davrida Berlinda nashr etilgan “Milliy adabiyot” majmuasida “O’tkan kunlar” dan parchalar berilgan (1943. 5-son). Shuningdek, “Milliy Turkiston” majmuasining 1964-yil may sonida Boymirza Hayitning “Turkiston yangi adabiyotida ikki siymo: Qodiriy va Cho‘lpon” nomli maqolasi bosiladi. Maqolaning avvalgi qismi Abdulla Qodiriy xususida bo‘lib, sarlavhadan keyin “boshqarma” — tahririyat tomonidan shunday eslatma bitilgan: “O’tkan kunlar”da “Ho‘qand xonligi va Rusianing Turkistonga hujumi oldidagi hayot tasvir etilgan” ligini ochiq yozdi.

Savet davrida adib asarlari mukammal o`rganilmagan hamda nashr qilinmagan. Adib oqlangandan keyin, albatta, uning asarlari nashr qilina boshlandi. Biroq “O’tkan kunlar”ning 1958-yildagi nashri ilgarigi nashrlardan farqli ekanligini B.Hayit roman matnlarini qiyoslab, ba’zi o‘rinlar tushirib qoldirilganini, ayrim jumlalar tahrir etilganini ta’kidlaydi. Jumladan, roman oxirida Otabekning “o‘ris bilan to‘qnashma”da shahid bo‘lganligi iborasi “chor askarlari bilan to‘qnashish”da birikmasiga o‘zgartirilganligini misol qilib keltiradi. B.Hayit maqolasida Abdulla Qodiriy ijodining favqulodda yangi, kutilmagan talqinlari sezilmaydi. Tabiiyki, kommunistik jamiyat sari intilayotgan tuzumga nisbatan bunday shak-shubhalar uning muxolifatdagi juftliklari tomonidan so‘z bo‘roni ila qarshilanishi shart edi. Adabiyot maydonidagi hukmron siyosatning talabi shunday edi¹.

¹ B.Karim. Dunyo olimlari nigohi. Abdulla Qodiriy va germenevtik tafakkur. Maqola. 2016

Xorijda Qodiriy ijodiga o‘z munosabatini bayon etgan olimlardan biri Edvard Olvort edi. Uning “O‘zbek adabiy siyosati” nomli kitobi bor. Olim unda jadid adabiyotiga jiddiy e’tibor qaratadi va umuman to‘g‘ri qarashlarni ham ilgari suradi. Mafkuraviy-siyosiy adabiyotshunoslik namunasi bo‘lgan “O‘zbek adabiy siyosati” kitobida Abdulla Qodiriy nomi bir necha o‘rinda alohida e’tibor bilan tilga olinadi. E.Olvortning kitobidagi fikrlari bilan ham sovet olimlari hisob-kitob qilishga majbur bo‘ldilar. Biroq shuni alohida ta’kidlash joizki, mustaqillikdan avval agar xorij olimlari tomonidan yozilgan ilmiy maqolalar sovet adabiy siyosatiga mos kelsa, albatta, inobatga olinar va yuksak e’tirof ramzi o‘laroq maqolalarda undan iqtiboslar keltirilar edi.

Ma’lumki, 1968-yili Germaniya Demokratik Respublikasi poytaxti Berlinda “O‘tkan kunlar” “Die Liebenden von Tashkent”, ya’ni “Toshkentlik sevishganlar” nomi ostida rus tili orqali olmonchaga o‘girilib nashr qilinadi. Unga olmon adabiyotshunosi Niota Tun so‘ngso‘z yozgan. 1909-yildan 1932-yilgacha tojik va o‘zbek badiiy prozasi nomli falsafa fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun ilmiy ish himoya etiladi. Uning muallifi E.Olvortning shogirdi Eden Nabi ismli olima edi.

E. Nabi bir o‘rinda Abdulla Qodiriy romançilik mahoratini S. Ayniyga qiyoslab, ilk o‘zbek romannavisining ustunligini bayon etadi: “Ayniying tarixiy romanlari G‘arb madaniyati nuqtai nazaridan qaraganda o‘z mohiyatini to‘liq ifodalay olmagan bo‘lsa, Abdulla Qodiriy tomonidan yozilgan ikki roman tarixiy roman elementlarini ko‘rsatishga ancha yaqinlashdi. Shuningdek, ushbu ikki roman ma’lum bir xususiyatlar bilan G‘arb romançiligidan farqlanib, ajralib turadi degan fikrlarni bildirib o‘tgan. E. Nabi e’tiborini tortgan yana bir jihat shuki, Abdulla Qodiriy xotin-qizlar obrazini realistik, his-tuyg‘ulari, ichki va tashqi dunyosi bilan yorqin tasvirlagan; o‘sha davrning boshqa sovet o‘zbek va tojik adiblarida aynan xotin-qizlar dunyosi juda sayoz, bироqlama, sovet tuzumini yoqlash va eski an’analarni quruq qoralash yo‘sindida yozilgan².

Amerikada Abdulla Qodiriy ijodini “The Relationship of Abdulla Qodiriy’s Historical Novels to the Earlier Uzbek Literary Traditions (University of Washington 1980), ya’ni «Abdulla Qodiriy tarixiy romanlarining ilk o‘zbek adabiy an’analariga aloqasi» (Vashington universiteti, 1980) mavzusida tekshirib, doktorlik dissertatsiyasi yozgan Xristafor Maykel Murfi adib romanlariga “struktural adabiyotshunoslik uslubi bilan” yondashadi. Avvalo, “O‘tkan kunlar” tadqiqotchiga romanidan ko‘ra boshqacharoq asar bo‘lib ko‘rinadi.

O‘tgan asrning 90-yillarda olmon olimlari Abdulla Qodiriy ijodiga jiddiy qaradilar. Maxsus adabiy lug‘atlarda Abdulla Qodiriy hayoti, ijodi xususida ma’lumot berdilar. Rudolf Radler muqarrirligi ostida bir necha yil davomida nashr etib kelingan ko‘p tomlik “Kipdlers Neues Literatur Lexisop” ining 1990-yilda boshilgan 9-tomida “Adulla Kadyri. Otgan kiplag” degan ikki betlik maqola shular jumlasidandir. Shuni alohida ta’kidlash joizki, G‘arb olimlari, umuman, xorijlik o‘zbekshunoslarning 90-yillarda yozgan ilmiy ishlari 60-70-yillardagiga nisbatan chuqurroq. Mafkuraviy-siyosiy talqinlarga qaraganda qiyosiy-ma’rifiy talqinlar ko‘proq ko‘zga tashlanadi.

Germaniyada Abdulla Qodiriy ijodi bilan jiddiy shug‘ullangan olimalardan yana biri Zgrid Klavnmixel xonimdir. Z. Klavnmixel o‘zining 1993-yili nashrdan chiqqan 279 betlik “Sharqona yozish an’anasining rivojlanishi. 1910 — 1934 yillar o‘zbek dramasi va nasriy asarlar tadqiqi” deb nomlangan kitobining maxsus bir bo‘limini Abdulla Qodiriy romanlariga bag‘ishlaydi.

Shuningdek, Z.Klavnmixel tadqiqotida: “Muallif Otabek uchun she’riyatdagi obrazlarga xos nutqni prozaga ko‘chirdi: oshiq kasal bo‘lib qoladi va oh ura boshlaydi”, “Ota-bola o‘rtasidagiga o‘xshash munosabat (gap Yusufbek hoji bilan Otabek haqida — B.K.) na xalq adabiyotida, na masnaviyda va na Jo‘rji Zaydon asarlarida ko‘zga tashlanadi...”. “Biron shaxsga vogelikda mos tushishi mumkin bo‘lgan tasnif va o‘zini tutish imkoniyatlari bir necha shaxsga bo‘lib-bo‘lib berilganga o‘xshaydi” kabi e’tiborli qarashlar ko‘p. Shunisi muhimki, olima o‘z talqinlarida adibning har ikki romanini yonma-yon, uyg‘unlikda qiyosiy tadqiq etadi va o‘rnio‘rnii bilan xalq og‘zaki ijodiga taqqoslab boradi. ugun, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi tasarrufidagi Abdulla Qodiriy nomidagi ijod muktabiga arizonalik tilshunos Mark Riz tashrif buyurdi. Mark Riz 27 yil avval O‘zbekistonga kelgan. Mark Riz turli vazifalarda ishlagan — Tinchlik korpusi, akademik, tarjimon. Ma’lumot ornida aytish joizki, Mark

² Ismatulla X. Abdulla Qodiriy abadiyati. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 1994 yil 14-oktyabr, 11-noyabr.

Riz Abdulla Qodiriyning “O’tgan kunlar” romanining tarjimasini 2002-yilda, Toshkentda aspiranturada oqib yurgan damlarida boshlagan. Romanni tarjima qilishga uni ilhomlantirgan narsa — Qo‘qonda yashab, ishlab yurgan davrini so‘zlar bilan ifodalashga ojizligi, “O’tgan kunlar” esa, o‘scha hislarni aniq-tiniq ifoda etgani hamda amerikaliklarga murakkab, serqirra, ko‘p madaniyatli o‘lkani yaqindan tanishtirish maqsad bo‘lgan. Arizonalik mashhur tilshunos olim Mark Riz 2002-yilda Toshkentda aspiranturada o‘qib yurgan paytlari “O’tkan kunlar” romani tarjimasini boshlagan. Uning o‘zi ta’kidlaganidek, Qodiri davridagi Markaziy Osiyo, u davrdagi madaniy muhitni tushuntirib berish uchun tarjimaga 500 ga yaqin izohlar qo‘sghan. O‘zbek tilshunoslari va adiblar uni ko‘rib chiqib, tahrirlashgan. Ma’lumot uchun, ushbu asar tarjimasi uchun yolg‘iz o‘zim barcha xarajatlarni ko‘targanman va hozirgacha jiddiy mablag‘ sarflaganman” – deydi Mark Riz. O‘zbekistonning Washington shahridagi elchixonasida AQSHda ingliz tilida ilk bor nashr etilgan Abdulla Qodiriyning “Bygone days” (“O’tkan kunlar”) kitobi taqdimoti bo‘lib o‘tishi rejalashtirildi. Bu jarayon yurttimizda adibning 127 yilligida amalga oshirilmoqda. Romanning tarjimasi ustida ishlash o‘n besh yildan ko‘proq davom etdi. Elchixona, AQSHdagi vatandoshlarimizning, shuningdek, O‘zbekistonlik mutaxassislarining faol qo‘llab-quvvatlashi natijasida romanni nashr etish jarayoni sezilarli darajada tezlashdi. Kitob sotuvga chiqdi va “Besh yulduz”li reytingga ega bo‘ldi. Tashrif davomida Mark Riz O‘zbekistonda o‘tkazgan yillari haqida o‘zining yaxshi xotiralari bilan o‘rtoqlashdi, o‘z ishi natijalari haqida so‘zlab berdi va barchani “hech bo‘lmaganda bir marta O‘zbekistonga tashrif buyurib, uning boy tarixiy merosi, betakror me’morchiligi va oljanob xalqiga guvoh bo‘lishga” chorlashini ta’kidlab o‘tdi. Tadbir yakunida Mark Rizz “Abdulla Qodiriyning O‘rtta Osiyo va Jahon adabiyotida o‘xshashi yo‘q “O’tkan kunlar” romanini ingliz tiliga tarjima qilish men uchun sharaf bo‘ldi” - deya ta’kidladilar.

Yuqoridagi ma’lumotlardan ayon bo‘ladiki Abdulla Qodiri ijodini nafaqat yurttimizda, balki xalqaro miqyosda o‘rganish kuchaydi. Bu esa adib asarlarini dunyo adabiy jamoatchiligiga keng tanishtiradi hamda nafaqat mumtoz o‘zbek adabiyoti durdonalari, balki XX asrning iste’dodli adiblarining ham jahonning mashhur ijodkorlari qatorida o‘z munosib o‘rinlari borligini bildiradi. Bunday haqiqatni boshqalarga yanada teran anglatish uchun o‘zbek adabiyoti namunalari keng miqyosda dunyoga chiqishi va o‘zbek ziyolisi bu sohada chinakam fidoyi bo‘lishi lozim. O‘z davrida kam nusxada chop etilgan kitoblarning bugungi kunda yuz minglab nashr etilayotganligi Qodiri asarlarining ahamiyati va ko‘lami ortayotganligining dalilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bashir. O‘zbek adabiyoti. — Qozon, 1929. — B.15.
2. Ismatulla X. Abdulla Qodiri abadiyati. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 1994 yil 14-oktyabr, 11-noyabr.
3. Bu haqda qarang: Ismatullaev X. Abdulla Qodiri abadiyati. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 1994. 11-noyabr
4. B.Karim. Dunyo olimlari nigohi. Abdulla Qodiri va germenevtik tafakkur. Maqola. 2016